

QASHQADARYO VILOYATI TABIIY RESURLARDAN IQTISODIYOTDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI VA MUOMMOLARI

Normatova Gulasal
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: Safarova Nasiba

Annotatsiya. Qashqadaryo viloyati o'z tabiiy resurslari zaxirasi va ishlab chiqarilishi bilan mamlakatimizning yetakchi viloyatlari qatoridan o'rin olgani sir emas. Ushbu potensialdan foydalanishning iqtisodiy jihatlari, rentabelligi hamda samaradorligi ushbu maqolada muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: Tabiiy resurs, gaz, neft, suv, quyosh, iqtisodiyot, metod.

Abstract. It is no secret that Kashkadarya region is one of the leading regions of our country with its natural resources reserves and production. Economic aspects, profitability and effectiveness of using this potential are discussed in this article.

Key words: Natural resource, gas, oil, water, sun, economy, method.

KIRISH

O'zbekiston yer resurslari bilan yaxshi ta'minlangan. Umumiy yer zahirasining salkam o'n foizini haydalgan va sug'oriladigan yerlar tashkil etadi. Shularning asosiy qismi dehqonshilik ushun qulay bo'lgan, aholi zish joylashgan vodiy va vohalarga to'g'ri keladi. Sug'oriladigan yerlarda paxta, bug'doy, sholi, jo'xori, kanop, sabzavot, kartoshka va poliz ekinlari, lalmi yerlarda esa bug'doy va arpa etishtiriladi. Mamlakatda sug'oriladigan yerlarning umumiy maydoni salkam 4,3 mln. gektarni tashkil etib, uning asosiy qismi tuproq-suv sharoiti nisbatan qulay bo'lgan vodiy va vohalarda joylashgan. Farg'ona, Zarafshon vodiylari, Surxondaryo, Qashqadaryo,

Xorazm vohalari shular jumlasidandir. Sugʻoriladigan yerlar maydoni XX asrning 60 yillaridan soʻng ikki martadan ziyod koʻpaydi.

ASOSIY QISM

Mineral xom ashyo resurslarida metallardan tashqari nometall qazilma boyliklari ham koʻp. Bularga togʻ-ruda xom ashyosi, togʻ-kimyo xom ashyosi, qurilish materiallari, yer osti suvlari kiradi. Togʻ-ruda xom ashyosi oʻz ishiga erituvshan shpat, dala shpati-kvarsli xom ashyosi, qoliplaydigan xom ashyo, vollastonit, asbest va boshqalarni oladi. Erituvshan shpat, dala shpati Toshkentoldi geologiya-iqtisodiy rayonida, Navoiy viloyatida topilgan. Togʻ-kimyo xom ashyosi hisoblangan fosforitlar, tabiiy tuz, soda, agrokimyo xom ashyosi, sulfat, kaliy, osh tuzi konlari borligi yirik-yirik zavodlarning ishga tushishiga sabab boʻlgan. Masalan, Qoʻngʻirot soda zavodi, Qashqadaryodagi kaliy oʻgʻitlar ishlab shiqarish zavodi va boshqalar [1].

Yoqilgʻi-energetika resurslariga neft, gaz, koʻmir va elektroenergiya kiradi. Bulardan neft konlari Fargʻona vodiysida, xususan, Fargʻona viloyatining Shimoliy Soʻx, Shungʻara, Shimyon, Shoʻrsuv, Andijon viloyatining Janubiy Olamushuk, Polvontosh konlaridan qazib olinadi. Fargʻona vodiysida Xoʻjaobod, Janubiy Olamushuk, Shimoliy Olamushuk, Polvontosh, Xoʻja Usmon, Xartum kabi yangi konlar topilgan va ishga tushirilgan. Janubiy Oʻzbekiston Surxondaryo va Qashqadaryoda yangi-yangi neft konlari (Kokaydi, Lalmikor Xaudak, Ushqizil) topilgan. Shuningdek, Surxondaryo, Namangan viloyatlarida, Qoraqalpogʻiston Respublikasida ham neft konlari topilgan. Muborak, Shoʻrtan, Oʻrtabuloq va Koʻkdumaloq konlarida neft-gaz kondensati ushraydi. Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubiy-Gʻarbiy Hisor, Surxondaryo, Fargʻona mintaqalari neft va gaz mavjud boʻlgan beshta asosiy mintaqadir. Oʻzbekistonda gaz va neft zahiralarini izlab topish darajasi hozir 30-32 foizdan oshmasada, gazning aniqlangan zahirasi mamlakat ehtiyojini 35, neftniki 30 yil mobaynida qoplashga yetadi [2].

Yoqilgʻi-energetika xom ashyosida neftni qazib olish va qayta ishlash ishlarining jadallashuvi 1995 yilda respublika neft mustaqilligiga erishishiga olib keldi. Buxoro

viloyatida joylashgan Ko'kdumaloq neftkoni negizida, yirik Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodining ishga tushishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, Qorovulbozordan 30 km masofada yangi Kamalak neft koni aniqlandi. neft bilan baravariga gaz konlari ham respublika tabiiy xom ashyo potensialida muhim o'rin tutadi. Tabiiy gazga boyligi jihatidan, O'zbekiston dunyodagi 10 ta davlatning biri hisoblanadi. Respublikaning Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida tabiiygazning yirik konlari mavjud. Hududimiz tabiiy gaz zahiralariga juda boy. Hozirgi davrda zahirasi juda katta bo'lgan gaz koni Qashqadaryo viloyatidagi Sho'rton koni, Buxoroning Ko'kdumaloq konidan neft bilan birga gaz ajralib olinadi.

1-jadval

**Tog`-kon sanoati va oshiq konlarni ishlash, amaldagi narxlarda, mlrd.
so`m [7]**

Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O`zbekiston Respublikasi*	10 870,8	10 721,2	18 234,7	29 087,9	43 438,9	33 106,9
Qoraqalpog`iston Respublikasi	136,4	169,7	234,7	356,7	503,6	154,0
Andijon	76,7	102,1	103,1	113,4	206,6	115,3
Buxoro	530,9	553,8	514,4	600,5	1 266,7	238,9
Jizzax	19,3	30,3	20,4	45,5	119,4	182,5
Qashqadaryo	3 636,2	3 666,1	4 369,2	5 395,5	1338,39266	1 725,5
Navoiy	2 082,8	2 328,6	3 126,2	3 261,4	5 069,7	6 152,1
Namangan	23,5	13,5	14,7	38,9	53,9	46,8
Samarqand	47,9	50,3	61,2	96,9	138,6	231,2
Surxondaryo	73,6	123,3	128,2	175,0	240,3	212,5
Sirdaryo	3,5	8,5	6,5	12,6	27,7	82,4
Toshkent	1 447,6	1 672,1	2 832,1	1 548,0	2 186,2	2 583,9
Farg`ona	12,2	21,3	31,6	49,2	116,5	133,9
Xorazm	0,3	0,3	0,03	0,05	2,37	1,0
Toshkent sh.	138,1	158,4	437,1	1 490,8	11 229,0	13 077,8

Yuqoridagi jadvalga asoslanib aytish mumkinki, tog`-kon sanoati Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida, ulardan so`ng Toshkent viloyatida yuqori ko`rsatkishlarga ega. Statistik ma`lumotlar ko`rsatmoqdaki, ushbu sanoat darajasi 2015-yildan 2020-yilga qadar 3 barobar ko`payishga erishdi.

Ko‘rinib turibdiki, bizda energiya va tabiiy gaz resurslari rivojlangan davlatlarga nisbatan bir nesha barobar arzon. Lekin resurslardan oqilona foydalanish yo‘qligi natijasida tannarxning pasayishiga, mahsulot hajmi o‘shishiga erishish qiyin bo‘lmoqda. Energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish ushuncha mamlakatimiz energetika tizimini isloh qilishimiz, bu borada aniq strategiya ishlab shiqishimiz lozim. Avvalo, samarasiz va zarar bilan ishlaydigan korxonalarini xususiylashtirish, monopoliyani tugatish kerak. Shuningdek, elektr energiyasi yetkazib berishda raqobat muhitini shakllantirish va muqobil energiya manbalaridan foydalanishni rag‘batlantirish zarur. Buning ushuncha xususiy sektorni keng jalb etgan holda, ishlab shiqarishni moliyalashtirish bo‘yicha bozor mexanizmlariga o‘tish talab etiladi. Bozor iqtisodiyotining talabi shundayki, resurs va imkoniyatlardan foydalanish imkoni, ya‘ni faoliyat maydoni hammaga teng bo‘lishi kerak. Bo‘sh turgan davlat mulki ob‘yektlarini o‘zaro sheriklik asosida xususiy sektorga o‘tkazish bo‘yicha, Internet tarmog‘ida elektron savdolar va auksionlar orqali **yer ushastkalarini, jumladan, tadbirkorlar ushuncha ajratishning yagona tartibini** yer resurslaridan samarali foydalanishga qoyilgan qadamlardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi [6].

XULOSA VA MUNOZARA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2021 yil 30 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-72-sonli qaroriga asosan Energetika vazirligitimizdagi “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ tomonidan bir qator yirik investitsiya loyihalari amalga oshiriladi. Jumladan, Tallimarjon IESda umumiy quvvati 900 MVtdan kam bo‘lmagan ikkita bug‘-gaz qurilmasi 2024 yilda qurib foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. Ahamiyatlisi, qurilmalarning foydali ish koeffitsienti yuqoriligi hisobiga yiliga bir necha mlrd kub metr tabiiygaz iqtisod qilinadi.

Qashqadaryo viloyatida gaz va neftni qayta ishlash sanoatining gigant zavodi — “Uzbekistan GTL” nafaqat viloyat, balki, mamlakat gaz va gaz-kimyoy majmuasi

rivojlanishida ulkan ahamiyat kasb etadi. Mazkur zavod jahon energetika tarmogʻidagi eng yirik loyihalardan biri boʻlib, Prezidentimizning 2016 yil 29 dekabrda "Shoʻrtan gaz-kimyó kompleksining tozalangan metan negizida suyuq sintetik yoqilgʻi ishlab chiqarish" investitsiya loyihasini amalga oshirishga doir qoʻshimcha chora- tadbirlar toʻgʻrisida"gi qaroriga koʻra boshlangan. Zavod ishga tushgach, sanoat va qishloq xoʻjaligi uchun zarur barcha yoqilgʻi turlari - aviakerosin, dizel yonilgʻisi, nafta va suyultirilgan gaz ishlab chiqariladi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Soliev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. –Toshkent, 2013.
2. Soliev A.S. Oʻzbekiston geografiyasi. Darslik. –Toshkent, 2014.
3. Qashqadaryo viloyati geografiyasi. Qarshi.; 1994.
4. Toshpulatova L.M. Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati. – T.: TDIU, 2014. -123-b.
5. Dilovar Najmiddinovich Rashidov, Sharofat Amonovna Kadirova, & Ziyoda Abduvositovna Karimova (2022). MEHNAT BOZORIDA TENG SHARTLARDA RAQOBATLASHA OLMAYDIGANLAR, AYNIQSA NOGIRONLARNI ZAXIRALANGAN ISH OʻRINLARIGA ISHGA JOYLASHTIRISH MUAMMOLARI. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 2), 281-285.
6. Isadjanov A.A. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ekologik jihatlari. Monografiya. TDIU. Ilmiy tadqiqot markazi. 2020. 137-138 b.
7. www.stat.uz